



## KUTUBXONALAR FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH USULLARI.

**Mirsoat Mirsultanovich Isxakov**

“Kutubxona-axborot faoliyati”

kafedrasining katta o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14800711>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 25-Yanvar 2025 yil

Ma’qullandi: 28- Yanvar 2025 yil

Nashr qilindi: 31- Yanvar 2025 yil

### KEY WORDS

*muloqot madaniyati, ta’lim-tarbiya, kommunikatsiya, fikrlash, komil inson, temperament, jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada bolalarning komil inson bo‘lib shakllanishidagi psixologik-pedagogik masalalar, muloqotning muvaffaqiyatli bo‘lishida kutubxonachi va shaxs sifatlarining o‘rni, kutubxona-axborot muassasalarining foydalanuvchilarni muloqot madaniyati usullarini o‘rgatish masalalari yoritilgan.*

Bolalar shaxsnir har tomonlama shakllanishida muloqotning ahamiyati katta. Oddiy narsalarni o‘rganish uchun ham taqlid orqali o‘zaro muloqotda bo‘lish zarur. Jamiyat qonun-qoidalariga asoslangan holda munosabatlar rivojlanadi. Kutubxonachi bilan shaxs muloqoti o‘rtasida juda katta farqni ko‘rish mumkin. Masalan, go‘dak, ruhiy kasal, ongi past rivojlangan kishilarning muloqoti bilan yetuk rivojlangan, ongi yuksak kishining muloqoti o‘rtasida katta farq bor. Ongli shaxs muloqotni boshlashdan avval miyasida o‘ylaydi, so‘zlarini rejalashtiradi. Shaxsning jismoniy, aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishida muloqotning o‘rni katta. Masalan, axloqiy rivojlanish uchun oilada, maktabda, bog‘chada bolaga kattalar muloqot orqali ta’sir qiladilar. Shuningdek, estetik, aqliy, jismoniy rivojlantirish uchun kitobxonga o‘qituvchi muloqot orqali ta’sir etishga harakat qiladi. Demak, muloqot ta’sir qilish vositasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

Har-bir shaxs muloqotini shakllantirishda uning yoshi, jinsi, kasbi, dunyoqarashini hisobga olgan holda ish olib borish lozim. Masalan, biz kichik yoshdagi bolalarga kattalarga nisbatan qo‘llaydigan so‘zlarni ishlatmaymiz. Har bir yosh davriga kiradigan kishilarga o‘ziga xos so‘zlar qo‘llaniladi. Bunda so‘zning ta’sir kuchi hisobga olinadi. Shaxsning temperament (mijoz) xususiyatlariga qarab muloqot usullarini qo‘llash katta ahamiyatga ega. Shaxsda ko‘nikma, bilim, malakalarning hosil bo‘lishida muloqotning o‘rni beqiyos. Oddiy ko‘nikmalar («to‘g‘ri o‘tir, qo‘lingni yuv, joyingga bor, salom ber») ham muloqot orqali singdiriladi.

Muloqotning shakllanishida uning tarbiyalanganlik darajasi muhim o‘rin egallaydi. Masalan, shaxsga kuchli ta’sir etadigan so‘zlarni qo‘llasangiz ham u qabul qilmasligi, sizning bergan ko‘rsatmalaringizga amal qilmasligi mumkin. Chunki u yoshligidan muomala madaniyatini egallashi kerak. Muloqotning shakllanishida maqsad to‘g‘ri qo‘yilishi lozim. Muloqot ta’lim-tarbiya jarayonida, turli vaziyatlarda rivojlanadi. Masalan, oilada, mahallada, jamoada, guruhda. Agar oilada kattalar bir-birlariga qo‘pol munosabatda bo‘lsalar, bola ham ularga taqlid qilib atrofdagilar bilan nizolarga borishi mumkin.

Har tomonlama rivojlangan, yetuk, komil inson (shaxs)ni tarbiyalash uchun yoshlarni erkin fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog'liq holda shakllanadi.

Shaxsning shakllanishida muloqotning ahamiyati haqida psixolog olimlar o'z fikrlarini bayon qilganlar. Jumladan, psixolog B.G. Ananov «Odam bilishning predmeti sifatida» asarida bu masalani chuqur tahlil qilgan. U bilimning turli elementlarini egallash muvaffaqiyatli o'zlashtirishning garovi ekanligini ta'kidlaydi. Bilimlarni egallash muloqot orqali amalga oshirilishini ham uqtirib o'tadi. Agar kishilar o'zaro bir-birlariga axborot uzatmasalar, tajribalarini muloqot orqali almashmasalar rivojlanmay qolishlari to'g'risida

Muloqot ijtimoiy va individual holatdir. Shuning uchun nutq bilan uzviy bog'liq, kommunikativ vazifani bajarishda pantomimika, imo-ishoralarda muloqot shakllari sifatida yuzaga chiqadi.

Hozirgi paytda mamlakatimizda va xorijda muloqot muammosiga qiziqish ortib bormoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida kishilarning bir-birlari bilan qiladigan muloqoti katta ahamiyatga ega.

Psixolog, pedagog va boshqa olimlar muloqotni nutq kommunikatsiyasi bilan bog'liq yoki muloqotni jarayon sifatida o'rgangan. Ya'ni shaxslarning bir-biriga muloqot orqali ta'sir ko'rsatishlarini, bir-birlarini idrok qilish obyekti sifatida tahlil qiladilar. Shaxs turlicha munosabatlarda qarama-qarshi sifatlarni namoyon qilishi ham mumkin.

Bola shaxsini tarbiyalashda o'yinda, o'qishda, muloqotda, ya'ni faoliyatning turli sohalarida o'zining o'rnini bilishi zarurligini uqtiradi. U o'zining «Shaxs va jamiyat» kitobida bu masalaga katta e'tibor berib, bu muammolar kam o'rganilganligini ta'kidlaydi. A. A. Bodalyevning fikricha, «insonni muloqot orqali tarbiyalashda bu unga qanday ta'sir qilishini avvaldan o'ylash zarur».

Muloqotning muvaffaqiyatli bo'lishida shaxsning shakllangan sifatlari, fazilatlarining ahamiyati juda katta. Jumladan, shaxsda ijobiy fazilatlar yaxshi shakllangan bo'lsa (xushmuomalalik, kamtarlik, insonparvarlik, to'g'ri so'zlilik, vijdonlilik kabilar) muloqot jarayoni yaxshi o'tadi. Chunki shaxslar bir-birini to'g'ri tushunishlari uchun, muloqot muvaffaqiyatli bo'lishi uchun ular samimiy bo'lishlari lozim. Samimiylik insonning eng ajoyib fazilatlaridan biri bo'lib, voqea-hodisalarga oqilona munosabatda bo'lish, turli ta'sirlarga berilmaslikdir.

Bolalar avvalo oilada, so'ngra ta'lim muassasalarida muloqotga o'rgatib boriladi. Muloqotga o'rgatishning usullaridan biri muloqot ko'nikmasini kitoblarni tinglash, o'qish, suhbatlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog'cha yoshida tarbiyachi turli mashg'ulotlar o'tkazib muloqotga o'rgatadi. Avval elementar o'zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullar tarkib topadi. Rasmi kitoblarni tomosha qilish, tinglash va suratga qarab so'zlab berish orqali amalga oshiriladi.

Maktab yoshi davrida va keyinchalik kitobxon ijtimoiy-psixologik treninglar orqali muloqotga o'rgatiladi. Kitobxonning o'zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi zarur. Chunki kitobxon muloqotda bo'lmasdan faoliyat subyekti sifatida ham, individual inson sifatida ham to'laqonli rivojlana olmaydi. A.A. Bodalyev fikricha, hatto o'yin faoliyatida bola muloqotda bo'ladi. Ta'lim jarayonining asosida muloqotga o'rgatish masalasi turadi. Mehnat taimi jarayonida kishilar doimo muloqotga ehtiyoj sezadilar.

Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonning dunyoqarashini kengaytiradi

va psixikasini rivojlantiradi. Ya'ni barcha ruhiy jarayonlar muloqot orqali shakllanadi. Ikkinchi yo'nalish kutubxona a'zolarining ruhiy madaniyatini shakllantirishdir. Shu maqsadda foydalanuvchilarning insoniy muloqot, inson kitobxonini, bir-birini baholash xususiyatlari to'g'risidagi mulohazalarini rag'batlantiruvchi axborotni kitoblar orqali berish zarur. Uni insholar, suhbatlar, treninglar orqali uyushtirish mumkin. Maxsus mashqlar orqali muloqot usullariga o'rgatish shular jumlasidan.

O'qish madaniyatga o'rgatishni bolaning o'smirlik yoshidan boshlash muhim, chunki o'z shaxsi haqidagi axborotga qat'iy ehtiyoj xuddi shu davrda vujudga keladi. Bola o'zining anglashi xususida ziddiyatli kechinmalar boshlanadi. O'z ruhiy holati haqida xayol surish kuchayadi, muloqot juda ahamiyatli va g'oyat tanlab o'tkaziladigan yoshda inson shaxsi, shaxslararo muloqot to'g'risidagi axborot keraklidir.

Har bir shaxs odamlar bilan muloqotda muayyan ijtimoiy rolni egallaydi. Rollar shaxsning tabiatini to'laroq ochib berishi yoki uni niqoblashi mumkin. Ammo yondoshuv — rollarni tanlash albatta insonning o'z mohiyatiga, uning kuchiga, zaifligiga, salohiyat darajasiga, o'z-o'zini tanqid qila olishiga, xulq-atvorining puxtaligiga, o'zini chetdan ko'ra bilish qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Ba'zan muloqotdagi muvaffaqiyatsizliklar yoshlarni benuqsonroq, himoyalanganroq bo'lish uchun o'zidagi eng yaxshi xislatni yashirishga, buzishga majbur etadi. O'smirlik paytida yigit va qizlar yakka holatini boshdan kechiradi. Ular his-tuyg'ularini hech kimga aytishmaydi. O'zi haqidagi va atrofdagi kishilar haqidagi axborot — muloqot usullarini va mazmunli muloqotni tashkil etishga intilishni belgilab beradi. Buning uchun ruhiy tusdagi muayyan ma'lumotlarga ega bo'lish kerak. Har bir kishiga xos bo'lgan ruhiy xususiyatlar asab tizimi turi bilan belgilanadi va avvalo temperamentda: ta'sir ko'rsatish sur'atida, tabiiy signallarda (ovoz, yorug'lik, rang, hid, haroratning o'zgarishi), ijtimoiy signallarda (so'z, voqea, o'ta sezgirlikda, emotsional qo'zg'aluvchanlik, tashvishlilik darajasi, ekstraversiya, introversiya) namoyon bo'ladi.

Ekstroversiya bilan introversiya kishining ruhiy tavsifi sifatida muloqot sohasida yorqin namoyon bo'ladi. Ekstroversiya - individning tashqi dunyoga qarashi bo'lsa, introversiya - ichki dunyoga nisbatan qarashidir.

Asab faoliyatining kuchli tipi bilan bog'liq ekstroversiya xususiyatlari ustun bo'lgan kishilar ancha kirishimli, aloqalar, tanishishlar borasida erkin muomalaga moyil bo'ladilar. Ular ishtiyoq bilan yangi tanishlar orttiradilar, shovqin-suronli davralarni yoqtiradilar. Introvertlar — bu asab faoliyatining zaif tipiga mansub kishilardir. Ular o'z ichki dunyolariga berilishga, kechinmalarga moyil. Atrofdagilardan ko'p tashvishlanadilar, ular yaqinlarning tor doirasini ma'qul ko'radilar. «Ekstroversiya-introversiya» o'qining o'rtalarida joylashgan kishilar ruxshunoslikda sentrovertlar degan nomni olgan. Ular me'yorida kirishimli, me'yorida yolg'izlikka moyildirlar.

Nutq bilan ishlash orqali ham muloqotga o'rgatish mumkin. Masalan, ovozni baland chiqarib she'r o'qish, hikoyani so'zlab berish kabi treninglar ham muloqotning shakllanishiga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarni o'yin faoliyati davomida muloqotga o'rgatish oson kechadi.

Muloqotga o'rgatishda o'yin shakllarini qo'shib olib borishning ahamiyati katta:

1. Kutubxona faoliyatiga norasmiy muloqot elementlarini kiritish. Ayni paylda didaktik o'yinlardan foydalanish. Ularda muloqot tashkilotchisi rolini kutubxonachi emas,

kitobxonlardan biri bajarishi.

2. E'tiborni o'qilgan kitobning ijobiy jihatlariga qaratish. Kitobxonlar o'rtoqlarining javoblarini xolisona baholashga maxsus o'rgatiladi, ayni paytda eng kichik tafsilot, detallargacha e'tiborni qaratib, o'rtoqlarining javoblaridagi eng muvaffaqiyatli jihatlarini ajratib ko'rsatishni o'rganish. Kitobxonlardagi kamchiliklarni qanday qilib yo'qotish haqida bahslashish, kamchilikni bitta kitobxonning o'ziga aytish orqali ta'sir qilish.

3. Kitoblarda bayon qilingan insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar o'ziga xos xususiyatga ega. Jamiyatning yangilanish davrida inson ma'naviyati va ruhiyatida ro'y berayotgan o'zgarishlarning ruxiy tabiatini anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytsak, kitobxon yoshlarning ma'naviy dunyosini boyitish, ularning ongiga milliy g'oya asoslarini singdirish, vatanparvarlik hissini tarbiyalash, o'tmish va buyuk kelajak haqida fikrlash, buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanish hissi, yangicha tafakkur shakllanishi jarayonidagi ziddiyatlar va ularni bartaraf etish muammolarini teran yoritishni talab qiladi

#### Adabiyotlar:

1. Nosirov O. Kutubxona axborot xizmati: nazariyasi va amaliyoti. // Darslik-Toshkent, 2023 yil.-347 bet.
2. Mahmudov.M.X. Kutubxona axborot xizmati: nazariyasi va metodikasi. // Darslik-Toshkent, 2007 yil.-166 bet.
3. Hakimova M.Ya. va boshqalar. Kutubxonashunoslik. // O'quv qo'llanma.-Toshkent.-2025.-256 bet.
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
5. Югай А.Х., Мираширова Н.А. "Общая психология" – Ташкент 2014.
6. Дружинина В. "Психология". Учебник. "Питер", 2003.
7. Болотова А.К., Макарова И.В. Прикладная психология: учебник для вузов. –М., Аспект Пресс, 2002. – 383с.
8. Yakubjonovna K. M. Increase Love to Reading, Learning Culture of Getting Information //JournalNX. – С. 28-31.
9. Khakimova M. Y. Reading Culture–Intellectual Potential // American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education. – С. 119-134.
10. Khakimova M. Y. Analysis of The Process of Forming Reading Culture Among Young in Republic of Uzbekistan //AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI. – 2024. – Т. 3. – №. 9. – С. 6-10.
11. Хакимова М. МАКТАБ КУТУБХОНАЛАРИДА БОШЛАНГИЧ СИНФ ЎҚУВЧИЛАРИДА МУТОЛАА МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ //Information Library Magazine'INFOLIB'. – 2023. – №. 4.
12. Nosirov , U. . (2024). CURRENT ISSUES IN LIBRARY AND INFORMATION SERVICES. FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA JURNALI | JOURNAL OF SCIENCE, EDUCATION, CULTURE AND INNOVATION, 3(9), 28–32. Retrieved from <https://mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/1519>
13. O'.Nosirov, & Irgashova Dildora. (2024). KUTUBXONA-AXBOROT MUASSASASI FAOLIYATINI BOSHQARISHDA MULOQATNING ROLI. <https://doi.org/10.5281/zenodo.10645026>

14. Носиров Ў. МУТОЛАА-МАДАНИЯТНИНГ МУҲИМ ЭЛЕМЕНТИ СИФАТИДА //Information Library Magazine'INFOLIB'. – 2024. – Т. 46. – №. 4.
15. Davlatov Soibnazar Xo'janiyazovich. (2024). OLIY TA'LIM TIZIMI SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY MENEJMENTNING O'RNI VA AHAMIYATI. SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 2(9), 135–139. Retrieved from <https://innovativepublication.uz/index.php/jelsi/article/view/1750>
16. Цай И. К., Артемьева Е. Б. Развитие информационно-библиотечной системы Узбекистана в контексте исторических трансформаций // Труды ГПНТБ СО РАН. 2019. № 1. С. 22-25.
17. Цай И. К. Проблемы интеграции издательств, книготорговых и информационно-библиотечных учреждений в Республике Узбекистан // Научные и технические библиотеки. 2021а. № 12. С. 57-68 [Tsai IK (2021a) Problems of integration of publishing houses, bookselling and information and library institutions in the Republic of Uzbekistan. Nauchnye i tekhnicheskie biblioteki 12: 57-68. (In Russ.)]. DOI: <https://doi.org/10.33186/1027-3689-2021-12-57-68>.
18. Цай И. К. Формирование системы обязательного экземпляра в Республике Узбекистан // Труды ГПНТБ СО РАН. 2021б. № 2. С. 60-64 [Tsai IK (2021b) Formation of the legal deposit system in the Republic of Uzbekistan. Trudy GPNTB SO RAN 2: 60-64. (In Russ.)]. DOI: <https://doi.org/10.20913/2618-7515-2021-2-60-64>.
19. Цай, И. К. Развитие библиотечного образования в Республике Узбекистан = Development of library education in the republic of Uzbekistan / И. К. Цай // Труды ГПНТБ СО РАН. – 2020. – № 2. – С. 63–68.
20. Lyudmila Nigmatovna Muminkhodjaeva. (2024). INTENSIFICATION OF THE PROCESS OF TRAINING SPECIALISTS IN CULTURAL UNIVERSITIES THROUGH THE USE OF MODERN INFORMATION TECHNOLOGIES. Zenodo. <https://doi.org/10.5281/zenodo.13757191>

ACADEMY